O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Хоразм вилояти

Xorazm viloyati 220100, Urganch shahar, P.Maxmud ko'chasi,46 uy. Tel: +998904387766, E-mail: irada13@inbox.ru, www.ekspertiza.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy
Direktor: AVEZOV XURMAT BABADJANOVICH
Sana:28-11-2023 yil

Yig'ma ekspert xulosasi № 133151

Obyekt nomi ««Toshkent viloyati Yangiyo’l tumani Bunyodkor MFY Ziyo ko’chasi 2A-uyda joylashgan hududda ishlab chiqarish sexlari qurilishi» (2-bosqich) ishchi loyihaning arxitektura va qurilish qismi bo’yicha »

Buyurtmachi – «International Paper» MCHJ
Bosh loyihachi - «ZAEIM» MChJ
Litsenziya 28.09.2023 yildagi 137812-sonli litsenziya
Moliyalashtirish manbai - o’z mablag’lari hisobidan
Bosh pudratchi – shartnoma asosida
Qurilish turi yangi.
Murojaat raqami: № 124571

1. Loyihalash uchun asos

1.1. Tasdiqlangan loyihalash topshirig’i.

1.2. Toshkent viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi boshqarmasining 07.04.2023 yildagi 1727-1727259-64147-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig’i.

1.3. Toshkent viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi boshqarmasining 05.08.2023yildagi 77770-sonli xulosasi;

1.4. Toshkent viloyati ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasining 12.12.2018yildagi 05/2-2443-sonli davlat ekologik ekspertizasi xulosasi;

1.5. “Sincere project” MChJ tomonidan tayyorlangan muhandislik-geologiya sharoitlari xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko’ra «ishchi loyiha» ning elektron yo’nalishda taqdim qilingan loyiha xujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Qurilish maydonining o’ziga xos xususiyatlari.

Tashqi havo harorati - -19°S.

Normativ shamol bosimi – 38 kg/m2.

Normativ qor qatlami vazni – 50 kg/m2

Yer relyefi tekis.

Tuproqlar cho’kmaydi.

Zilzilabardoshligi – 8-9 ball.

Yong’inga qarshiligi – 2 toifa.

Yerning normativ muzlash chuqurligi – 0,68m.

3.2. Bosh reja.

Loyihalashtirilayotgan ob’ekt Toshkent viloyati Yangiyo’l tumani Bunyodkor MFY Ziyo ko’chasi 2A-uyda joylashgan.

Loyihalanayotgan ob’ekt chegaralari: shimol tomondan – temir yo’l muhofaza mintaqasi bilan, janub, janub tomondan – xususiy mulk hududi bilan, sharq va g’arb tomondan – ichki yo’l va xususiy mulk hududi bilan chegaralangan.

Ushbu hududda quyidagilar loyihalashtiriladi: ishlab chiqarish sexi (BDM-3) binosi qurish.

3.3. Asosiy loyihaviy yechimlar.

Loyihalanayotgan netkanka ishlab chiqarish sexi (BDM-3) binosi 1 va 2 qavatli to’g’ri to’rtburchak shaklidan iborat bo’lib rejadagi o’lchamlari 48,80x102,6 m. Bino xonasi balandligi – 6,0 m., 11,0 m. va 15,0 m. ni tashkil qiladi.

Konstruktiv yechim.

Bino poydyevori – stakan shakldagi quyma temir-betondan, beton markasi B20 (M-250).

Devorlar – M-75 markali pishgan g’ishtdan bo’lib, M-50 markali tsement qorishmasidan va bazalt qoplamali Sendvich panel.

Tomyopmalar – beton ferma.

Tom qoplamasi – bazalt qoplamali Sendvich panel va profnastil tunuka bilan yopilgan.

Po’llar – beton.

Derazalar va eshiklar – alyumin pro’fillar.

Darvoza – temir.

Bino yon atrofi yo’lagi – beton.

Texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlari.

Qurilish maydoni	- 5104,92 m2
Qurilish hajmi	- 60033,5 m3

3.5. Yong’in xavfsizligi.

Hududga kirish va chiqish yo’llari mavjud. Yo’l va yo’lakchalar betondan bo’lib, o’t o’chirish mashinalarini bino va inshootlarga borishi ta’minlangan.

Birlamchi yong’in o’chirish uchun jixozlangan yong’inga qarshi qalqonlar amalga oshiriladi.

Tashqi yong’in o’chirish suv saqlash havzasi va yong’inga qarshi gidrantlar yordamida amalga oshiriladi.

Bir vaqtning o’zida yong’inlar soni – 1. Yong’in o’chirish davomiyligi – 3 soat.

3.6. Atrof-muhit muhofazasi.

Ob’ekt hududi obodonlashtirilgan va ko’kalamzorlashtirilgan.

Qurilish boshlashdan oldin, unumdor tuproq qatlami kesilib, keyingi melioratsiya uchun ishlatiladi.

Chiqindilarni yig’ish joylari ob’ekt hududida ajratilgan.

Oqava suvlari oqava suv qudug’iga chiqariladi.

Yer bilan tegib turgan inshootlar, tuproq va yer osti suvlarining agressivligini hisobga olgan holda izolyatsiyaga ega.

3.7. Energiya samaradorlik.

Energiya samaradorlikni ta’minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

– yoritish svetodiodli chiroqlar orqali bajarilgan va b.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

Ushbu ishchi loyiha bo’yicha muhandislik ta’minoti ko’rib chiqilmadi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- buyurtmachi bilan;

- Toshkent viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi boshqarmasi;

- SEOvaJSB Yangiyo’l tumani bo’limi;

- Yangiyo’l tumani favqulotda vaziyatlar bo’limi;

6. Ekspertiza natijalari.

5.1. Buyurtmachi loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

5.2. Ichki va tashqi muxandislik tarmoqlari loyiha xujjatlarini ekspertizadan o’tkazish tavsiya qilinadi.

5.3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentyabrdagi 579-sonli qarorining 3-bob 29 bandiga muvofiq exspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha echimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

7. Xulosalar.

6.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda «Toshkent viloyati Yangiyo’l tumani Bunyodkor MFY Ziyo ko’chasi 2A-uyda joylashgan hududda ishlab chiqarish sexlari qurilishi» ishchi loyihaning arhitektura va qurilish qismi ekspertiza natijasida aniqlangan kamchiliklar va takliflar inobatga olgan holda tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

6.2. Buyurtmachi ekspertizaning izohlari bo’yicha tuzatilgan loyiha hujjatlarini bosh pudratchi tashkilotga o’tkazilishini ta’minlaydi.

6.3. O’z.R. Vazirlar Mahkamasining 17.09.2021 yildagi 579-sonli qarorini 5-bob 36-bandiga asosan ushbu ekspertiza xulosasi berilgan sanadan boshlab 2 yil davomida amal qiladi.

Bosh mutahassis: Sh.Matyakubov

Ekspert mutaxassislar: M.Yoldashev

Bosh mutaxassis: MATYAKUBOV SHIXNAZAR KURAMBAEVICH

Ishtirokchi ekspertlar:

YULDASHEV MUXAMMETJAN IBROGIMOVICH

MASHARIPOV DILMUROD BAXTIYAROVICH